XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-dekabr VII-4-030-6-0-K/24 Namangan viloyati

Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26813-sonli xatiga muvofiq, viloyat hokimining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/10-2469-son taqdimnomasini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Namangan viloyati mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **3 942,8 mlrd.so‘m** va xarajatlari **6 171,2 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **2 228,4 mlrd.so‘m** miqdorida, shundan tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **263,9 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonun 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 66 foizi, Toshkent viloyatida 51 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Navoiy

viloyatida 70 foizi, Toshkent viloyatida 49 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘ining Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika budjeti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar mustasno) tumanlar va shaharlar budjetlariga o‘tkaziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga:

ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo‘yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni joriy etishga;

ko‘chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashga haqli.

Agar qonunchilikda daromadlarning budjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari respublika budjetiga o‘tkaziladi;

mahalliy budjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga o‘tkaziladi.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo‘lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo‘yicha esa respublika budjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkaziladi. Shuningdek ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024 va 2025-yillardagi davlat ulushi bo‘yicha sof foydasining 100 foizini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga dividendlar tarzida o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to‘lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Namangan viloyatining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillar uchun maqsadli mo‘ljallar **1-ilova**ga;

Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

viloyatning viloyat budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma meyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Namangan viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Namangan viloyatdagi tuman (shahar) mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **5-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **15 730,0 mln. so‘m** etib hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **27 738,8 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

viloyat, tuman va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga,** ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar **9-ilovaga,**yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining eng kam va eng yuqori qat’iy belgilangan stavkalari **10-ilovaga,** belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslariga mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan soliq stavkalari **11-ilovaga,** soliq solish maqsadida qo‘llaniladigan ko‘chmas mulk ob’ektlarining ijarasi qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorlar **12-ilovaga** hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) 1 kub.metr hisobidan belgilangan qat’iy stavkalar **13-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i A.Abduhamidov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Barcha tuman va shahar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Namangan viloyat boshqarmasi (B.Mirzaahmedov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev) Bo‘sh turgan ob’yektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (A.Axmadaliyev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

14. Namangan viloyati irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Rizzayev) va viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Aliyev), Adliya boshqarmasi (D.Axmedov) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

16. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev) tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

17. Xalq deputatlari hududiy Kengashlari hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyatining Namangan shahri tarkibida Davlatobod tumanini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-noyabrdagi 718-son qaroriga muvofiq Namangan shahri tarkibida Davlatobod tumani va “Namangan viloyatining Namangan shahri tarkibida Yangi Namangan tumanini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-maydagi 293-son qaroriga muvofiq Namangan shahri tarkibida Yangi Namangan tumani tashkil etilganligini inobatga olib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar shuningdek, viloyatlar bo‘ysinuvidagi shaharlar tarkibidagi tumanlar Xalq deputatlari Kengashlari vakolatlarini cheklanib qolinishini oldini olish maqsadida, Namangan shahar budjetining 2025-yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari hamda daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismidan 25 (yigirma besh) foiz Namangan shahri tarkibidagi Davlatobod tumaniga, 25 (yigirma besh) foiz Namangan shahri tarkibidagi Yangi Namangan tumaniga yo‘naltirilsin.

19. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

20. Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi (F.Saloxiddinov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’yektlari

bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Namangan viloyati boshqarmasi (B.Xodjiyev) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

22. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (I.Raxmatov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Ergashev), Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

23. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i A.Abduhamidov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Namangan viloyatining rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli mo‘ljallar

t/r	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Maqsadli mo‘ljallar	
			2026-yil	2027-yil
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so‘m	77 209,7	88 310,2	100 729,1
2	Yalpi ichki mahsulotning o‘sish surati, foizda	108,3	106,2	106,4
3	Iste’mol narxlari indeksi, o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	7,0	5-6	5
4	Sanoat mahsulotlarining o‘sish surati, foizda	107,7	108,6	108,9
5	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104,5	104,6	104,7
6	Bozor xizmatlari o‘sish sur’ati, foizda	115,2	118,5	118,9
7	Qurilish ishlarining o‘sish sur’ati, foizda	108,2	107,5	108,0

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

№	Daromad turlari	Mahalliy reja
1	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigansoliq**	65 740 000
2	**Yuridik shaxslar yer solig‘i**	45 880 000
3	**Aksiz solig‘i, jami**	294 171 990
	shu jumladan:	
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*294 171 990*
4	**Davlat boji**	150 607 000
5	**Yig‘imlar**	85 918 000
6	**Jarimalar**	139 541 000
7	**Foyda solig‘i**	327 920 000
8	**Aylanmadan olinadigan soliq**	47 356 840
9	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i**	979 069 280
JAMI		**2 136 204 110**
	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	1 976 242 958
	shundan, tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan	*263 913 000,0*
HAMMASI		**4 112 447 068,0**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklanga nmiqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**4 364 563 799**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 028 772 068**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	83 675 000
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	**252 116 731**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**263 376 191**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**263 376 191**
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	621 182
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**209 825 122**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**209 825 122**
	shundan:	
	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	795 344
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**1 889 198 551**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 834 898 551**
	shundan:	
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	3 572 304
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	2 958 239
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0
	Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	54 300 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**59 215 984**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**59 215 984**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**3 171 132**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 171 132**

	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**132 080 201**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**132 080 201**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 551 734**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 551 734**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**18 849 441**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**18 849 441**
	shundan:	
	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	3 150 000
	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash xarajatli	2 936 000
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**37 539 884**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**37 539 884**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**83 834 843**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**78 234 843**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	15 070 000
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	5 600 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 684 068**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 684 068**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**17 916 408**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**17 916 408**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**1 330 906 976**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 078 790 245**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilganzararni qoplash xarajatlari	3 000 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2 300 000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	12 567 583
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	9 245 515
	Kadastr agentligi Namangan viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 553 381
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so‘ndirish bo‘yicha xarajatlar	7 276 761

	Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar	58 559 117
	Davlat ichki qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqa asosiy to‘lovlar	0
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar	89 240 867
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	1 445 000
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	880 868 661
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	252 116 731
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 823 628**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 823 628**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 314 476**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 314 476**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**5 371 615**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 371 615**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**8 360 849**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 360 849**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**14 878 886**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**14 878 886**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**95 736 368**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**95 736 368**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Hokimiyat**	**132 814 349**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**109 039 349**
	shundan:	
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	130 555
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	438 851
	Zaxira jamg‘armasi	27 738 781
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	465 716
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	4 450 530
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) so‘ndirish bo‘yicha xarajatlar	0
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar	0
	Davlat ichki qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqa asosiy to‘lovlar	62 010 000

	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar	0
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	2 734 056
	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	0
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	23 775 000
21	**Hokimiyat** (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	**19 071 170**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**19 071 170**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	6 070 753
	Axborot-kutubxona markazlari	2 459 142
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	9 717 904
	Viloyati matbuot va axborot boshqarmasi	823 371
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasining Namangan viloyat boshqarmasi**	**9 497 384**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 497 384**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**10 168 418**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**10 168 418**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**3 658 855**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 658 855**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqarmasi**	**6 177 813**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 177 813**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Boshqa tashkilotlar**	**4 539 453**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 539 453**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapitalqo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar

(Foiz hisobida)

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi vagazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Namangan shahar	0%	14%	100%	86%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
2	Mingbuloq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
3	Kosonsoy tumani	0%	80%	100%	20%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	30%	100%	70%
4	Namangan tumani	0%	97%	100%	3%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	98%	100%	2%
5	Pop tumani	0%	60%	100%	40%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	32%	100%	68%
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	0%	81%	100%	19%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	85%	100%	15%
7	Uychi tumani	0%	70%	100%	30%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	60%	100%	40%
8	Chortoq tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	80%	100%	20%
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	0%	92%	100%	8%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	90%	100%	10%
10	Norin tumani	0%	70%	100%	30%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	20%	100%	80%
11	Uchqo‘rg‘on tumani	0%	60%	100%	40%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	80%	100%	20%
12	Chust tumani	0%	83%	100%	17%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	86%	100%	14%

Izoh: 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi;

2. Jarimalar (3430103), davlat boji (3422103) va yig‘imlar (3422203) bo‘yicha tushumlar to‘liq tegishli tumanlar va shaharlarlar mahalliy bdjetlariga yo‘naltiriladi;

3. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Boshqa tushumlar bo‘yicha 3450603,3450723,3450725,3450950,3450951, 3511700,3511117,3710303 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi.

(4-ilova daomi)

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Namangan shahar	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
2	Mingbuloq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
3	Kosonsoy tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
4	Namangan tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
5	Pop tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
7	Uychi tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
8	Chortoq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
10	Norin tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
11	Uchqo‘rg‘on tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%
12	Chust tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

(4-ilova daomi)

№	Hududlar nomi	Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyat-ning viloyat budjeti ga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyat-ning viloyat budjeti ga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyat-ning viloyat budjeti ga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyat-ning viloyat budjeti ga
1	**Namangan shahar**	45%	55%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
2	**Mingbuloq tumani**	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
3	**Kosonsoy tumani**	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
4	**Namangan tumani**	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
5	**Pop tumani**	52%	48%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
6	**To‘raqo‘rg‘on tumani**	66%	34%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
7	**Uychi tumani**	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
8	**Chortoq tumani**	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
9	**Yangiqo‘rg‘on tumani**	76%	24%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
10	**Norin tumani**	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
11	**Uchqo‘rg‘on tumani**	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
12	**Chust tumani**	76%	24%	0%	100%	0%	100%	0%	100%

)

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Namangan viloyat Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so‘m

T/r	Hududlar nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlar	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
			Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
	Jami	**2 058 760 621**	**1 806 643 890**	**252 116 731**	**2 058 760 621**
1	**Namangan shahar**	377 866 799	377 866 799	0	377 866 799
2	**Mingbuloq tumani**	128 392 111	80 474 400	47 917 711	128 392 111
3	**Kosonsoy tumani**	151 428 282	120 536 800	30 891 482	151 428 282
4	**Namangan tumani**	135 912 882	135 912 882	0	135 912 882
5	**Pop tumani**	171 579 489	171 579 489	0	171 579 489
6	**To‘raqo‘rg‘on tumani**	158 868 798	158 868 798	0	158 868 798
7	**Uychi tumani**	153 269 821	119 961 096	33 308 725	153 269 821
8	**Chortoq tumani**	142 653 719	102 334 100	40 319 619	142 653 719
9	**Yangiqo‘rg‘on tumani**	161 863 400	161 863 400	0	161 863 400
10	**Norin tumani**	146 400 565	87 335 000	59 065 565	146 400 565
11	**Uchqo‘rg‘on tumani**	150 359 229	109 745 600	40 613 629	150 359 229
12	**Chust tumani**	180 165 526	180 165 526	0	180 165 526

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘m

T/r	Hududlar nomi	summa
	Jami	**5 769 951,0**
1	**Namangan shahar**	1 173 131,0
2	**Mingbuloq tumani**	306 199,0
3	**Kosonsoy tumani**	412 413,0
4	**Namangan tumani**	356 456,0
5	**Pop tumani**	477 258,0
6	**To‘raqo‘rg‘on tumani**	461 464,0
7	**Uychi tumani**	419 645,0
8	**Chortoq tumani**	388 606,0
9	**Yangiqo‘rg‘on tumani**	483 734,0
10	**Norin tumani**	369 536,0
11	**Uchqo‘rg‘on tumani**	432 543,0
12	**Chust tumani**	488 966,0

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Namangan shahar	1,5	72 600 000,00
2	Mingbuloq tumani	1,0	48 400 000,00
3	Kosonsoy tumani	1,0	48 400 000,00
4	Namangan tumani	1,1	53 240 000,00
5	Pop tumani	1,0	48 400 000,00
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	1,1	53 240 000,00
7	Uychi tumani	1,1	53 240 000,00
8	Chortoq tumani	1,0	48 400 000,00
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	1,0	48 400 000,00
10	Norin tumani	1,0	48 400 000,00
11	Uchqo‘rg‘on tumani	1,0	48 400 000,00
12	Chust tumani	1,1	53 240 000,00

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun (turar joylar uchun belgilangan o‘sish m’yoridan oshmagan holda)	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Namangan shahar	1,63	705,79
2	Mingbuloq tumani	0,75	324,75
3	Kosonsoy tumani	0,80	346,40
4	Namangan tumani	0,91	394,03
5	Pop tumani	0,80	346,40
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	0,95	411,35
7	Uychi tumani	0,89	385,37
8	Chortoq tumani	0,89	385,37
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	0,82	355,06
10	Norin tumani	0,80	346,40
11	Uchqo‘rg‘on tumani	0,88	381,04
12	Chust tumani	0,92	398,36

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslar bo‘yicha	
		Koeffitsient	Mutloq miqdor (so‘mda)
1	Namangan shahar	1	2 200 000
2	Mingbuloq tumani	1	1 300 000
3	Kosonsoy tumani	1	1 300 000
4	Namangan tumani	1	1 300 000
5	Pop tumani	1	1 300 000
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	1	1 300 000
7	Uychi tumani	1	1 300 000
8	Chortoq tumani	1	1 300 000
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	1	1 300 000
10	Norin tumani	1	1 300 000
11	Uchqo‘rg‘on tumani	1	1 300 000
12	Chust tumani	1	1 300 000

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Namangan viloyatida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining eng kam va eng yuqori qat’iy belgilangan stavkalari

so‘mda

№	Hududlar nomi	Chakana savdo			Maishiy xizmatlar va boshqa faoliyat turlari
		Oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	Dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	
1	**Namangan shahar**	800 000	200 000	200 000	200 000
2	**Mingbuloq tumani**	66 250	16 250	16 250	16 250
3	**Kosonsoy tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
4	**Namangan tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
5	**Pop tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
6	**To‘raqo‘rg‘on tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
7	**Uychi tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
8	**Chortoq tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
9	**Yangiqo‘rg‘on tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
10	**Norin tumani**	280 000	100 000	100 000	100 000
11	**Uchqo‘rg‘on tumani**	300 000	100 000	100 000	100 000
12	**Chust tumani**	500 000	200 000	150 000	200 000

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
11-ilova

Namangan viloyati bo‘yicha belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslariga mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan soliq stavkalari

so‘mda

№	Hududlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’yektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar				Alkogolsiz va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (pivo va vinodan tashqari)		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
	Ob’yekti bo‘yicha	Er usti		Er osti					
		koeffitsiyent	miqdor	koeffitsiyent	miqdor	koeffitsiyent	miqdor	koeffitsiyent	miqdor
1	Namangan shahar	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
2	Mingbuloq tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
3	Kosonsoy tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
4	Namangan tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
5	Pop tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
7	Uychi tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
8	Chortoq tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
10	Norin tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
11	Uchqo‘rg‘on tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000
12	Chust tumani	1,00	700	1,00	850	1,10	41 800	1,00	15 000

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
12-ilova

Soliq solish maqsadida qo‘llaniladigan ko‘chmas mulk obyektlarining ijarasi qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorlar

so‘mda

№	Hudud nomi	Koeffitsient	1 m.kv turar joylarning yakuniy narxi	Koeffitsient	1 m.kv noturar joylarning yakuniy narxi
1	**Namangan shahar**	1,28	17 280,0	1,25	33 125,0
2	**Mingbuloq tumani**	1,31	7 205,0	1,10	12 100,0
3	**Kosonsoy tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
4	**Namangan tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
5	**Pop tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
6	**To‘raqo‘rg‘on tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
7	**Uychi tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
8	**Chortoq tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
9	**Yangiqo‘rg‘on tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
10	**Norin tumani**	1,31	7 205,0	1,20	13 200,0
11	**Uchqo‘rg‘on tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0
12	**Chust tumani**	1,31	7 205,0	1,27	13 970,0

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-030-6-0-K/24 -son qaroriga
13-ilova

Namangan viloyatida noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) 1kub.metr hisobidan belgilangan qat'iy stavkalar

so'mda

T/r	Hududlar	qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag'al aralashmasi		G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
		koeffitsient	Mutloq qiymat	koeffitsient	Mutloq qiymat
1	Namangan shahar	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
2	Mingbuloq tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
3	Kosonsoy tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
4	Namangan tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
5	Pop tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
6	To'raqo'rg'on tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
7	Uychi tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
8	Chortoq tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
9	Yangiqo'rg'on tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
10	Norin tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
11	Uchqo'rg'on tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0
12	Chust tumani	1,00	5 000,0	1,00	4 620,0